Жамият ва инновациялар –
Общество и инновации –
Society and innovations
Journal home page:
https://inscience.uz/index.php/socinov/index



The role of continuous video surveillance systems in managing public order maintenance activities of internal affairs agencies and directions for its improvement

Sherzod IBRAGIMOV[1], Sanjar SHARIPOV[2]

The Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan
Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

ARTICLE INFO

Article history:
Received December 2025
Received in revised form
5 December 2025
Accepted 10 January 2026
Available online
25 January 2026

Keywords:
public order,
video surveillance system,
public safety,
prevention, legal
foundations,
"Safe City" concept,
information and
communication
technologies.

ABSTRACT

The article analyzes the significance and effectiveness of continuous video surveillance systems in the activities of internal affairs agencies for maintaining public order. The research aims to evaluate the role of video surveillance systems in ensuring public safety based on information and communication technologies, examine their technical and legal aspects, and determine directions for improving the field based on advanced foreign experience and national needs.

The analysis results showed that video surveillance systems are an effective tool for crime prevention, prompt detection and disclosure of offenses, preventive action, and coordination of law enforcement agencies' activities. However, their technical condition, directions, legal foundations, and integration mechanisms do not fully meet modern requirements. The article describes, on a scientific and practical basis, the priority directions for improving video surveillance systems in harmony with foreign experience and national conditions.

2181-1415/© 2026 in Science LLC.
DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol7-iss1/S-pp88-96
This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Independent Researcher, The Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.
[2] PhD, Associate Professor, Independent Researcher, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda uzluksiz videokuzatuv tizimining roli va uni takomillashtirish yo‘nalishlari

Kalit so‘zlar:
jamoat tartibi,
videokuzatuv tizimi,
jamoat xavfsizligi,
profilaktika,
huquqiy asoslar,
“Xavfsiz shahar”
konsepsiyasi,
axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari.

ANNOTATSIYA

Maqolada ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatida uzluksiz videokuzatuv tizimlarining ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida jamoat xavfsizligini ta’minlashda videokuzatuv tizimlarining rolini baholash, ularning texnik va huquqiy jihatlarini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajriba va milliy ehtiyojlar asosida sohani takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, videokuzatuv tizimlari jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash va fosh etish, profilaktik ta’sir ko‘rsatish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning texnik holati, yo‘nalishlari, huquqiy asoslari va integratsiya mexanizmlari zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Maqolada xorijiy tajriba va milliy shart-sharoitlar uyg‘unligida videokuzatuv tizimlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy-amaliy asosda tavsiflangan.

Роль системы непрерывного видеонаблюдения в управлении деятельностью органов внутренних дел по обеспечению общественного порядка и направления ее совершенствования

Ключевые слова:
общественный порядок,
система
видеонаблюдения,
общественная
безопасность,
профилактика, правовые
основы, концепция
«Безопасный город»,
информационно-
коммуникационные
технологии.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение и эффективность систем непрерывного видеонаблюдения в деятельности органов внутренних дел по охране общественного порядка. Исследование направлено на оценку роли систем видеонаблюдения в обеспечении общественной безопасности на основе информационно-коммуникационных технологий, изучение их технических и правовых аспектов, а также определение направлений совершенствования данной сферы с учетом передового зарубежного опыта и национальных потребностей.

Результаты анализа показали, что системы видеонаблюдения являются эффективным инструментом предупреждения преступлений, оперативного выявления и раскрытия правонарушений, оказания профилактического воздействия и координации деятельности правоохранительных органов. Вместе с тем их техническое состояние, направленность, правовые основы и механизмы

интеграции не в полной мере отвечают современным требованиям. В статье на научно-практической основе описаны приоритетные направления совершенствования систем видеонаблюдения с учетом гармоничного сочетания зарубежного опыта и национальных условий.

KIRISH

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish jamoat xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi zichligining ortishi hamda jamoat joylarida turli xil huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilish xavfining kuchayishi jamoat tartibini saqlash faoliyatini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonlariga joriy etish, xususan, uzluksiz videokuzatuv tizimlaridan foydalanish jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Videokuzatuv tizimlari jinoyatlarning oldini olish, ularni tezkor aniqlash va fosh etish, huquqbuzarlik holatlariga nisbatan profilaktik ta’sir ko‘rsatish bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi videokuzatuv tizimlarining jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlashda yuqori samara berganligini ko‘rsatmoqda. “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi asosida shakllantirilgan videomonitoring tarmoqlari jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish, kuch va vositalarni oqilona taqsimlash hamda huquqbuzarliklar dinamikasini tizimli tahlil qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq mazkur tizimlarning samaradorligi faqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanib qolmasdan, ularning huquqiy asoslari va boshqaruv mexanizmlarining mukammalligiga ham bevosita bog‘liq.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda jamoat tartibini saqlash faoliyatini takomillashtirish, jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida videokuzatuv tizimlarini joriy etish va ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga integratsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda [10]. Shu bilan birga, amalda mavjud videokuzatuv tizimlarida texnik, tashkiliy va huquqiy jihatdan turli tushunmovchiliklar paydo bo‘layotganligi mazkur sohada ilmiy tahlillar o‘tkazish va aniq takliflar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Maqolada jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda uzluksiz videokuzatuv tizimining o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinib, amaldagi muammolar aniqlanadi hamda ilg‘or xorijiy tajriba va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda ushbu tizimni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi. Maqolada keltirilgan xulosa va takliflar jamoat tartibini saqlash sohasidagi boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot maqsadi: jamoat tartibini saqlash faoliyatida uzluksiz videokuzatuv tizimlarining o‘rni va ahamiyatini aniqlash; videokuzatuv tizimlari samaradorligini ilmiy jihatdan baholash; ilg‘or xorijiy tajriba va milliy shart-sharoitlar asosida tizimni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash.

Tadqiqot vazifalari: jamoat xavfsizligini ta’minlashda videokuzatuv tizimlarining profilaktik va fosh etish rolini tahlil qilish; mavjud normativ-huquqiy bazani va videokuzatuv tizimlarini qo‘llashning amaliy jihatlarini o‘rganish; O‘zbekistondagi texnik, tashkiliy va huquqiy muammolarni aniqlash va tahlil qilish; xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganib, milliy sharoitlar uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqish; videokuzatuv tizimlarini integratsiyalash va “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi doirasida jamoat tartibini boshqarishni takomillashtirish yo‘llarini belgilash.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda uzluksiz videokuzatuv tizimining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy va empirik usullar kompleks qo‘llanildi. Jumladan, ichki ishlar organlarining statistik ma’lumotlari, milliy normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy mamlakatlar amaliyotiga oid ochiq manbalar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida videokuzatuv tizimlaridan foydalanish ko‘lami so‘nggi yillarda izchil ravishda kengayib borayotganini ko‘rsatdi. Mazkur jarayon axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga joriy etishga qaratilgan davlat siyosati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, videokuzatuv vositalarini o‘rnatish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarning muayyan darajada normativ-huquqiy tartibga solinishiga olib keldi.

Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatadiki, videokuzatuv tizimlaridan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlarida aks etgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni mazmun va tartibga solish predmetiga ko‘ra shartli ravishda to‘rtta asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish ichki ishlar organlari xodimlarining o‘z xizmat faoliyatida videokuzatuv tizimlaridan foydalanish huquqini mustahkamlovchi normalarni qamrab oladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunida ichki ishlar organlariga jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, chek qo‘yish, fosh etish va tergov qilish, shuningdek huquqbuzarliklar hamda hodisalar holatlarini hujjatlashtirish maqsadida texnik vositalardan, jumladan video qayd etish vositalaridan foydalanish huquqi berilgan. Ushbu normalar videokuzatuv tizimlarini jamoat joylarida qo‘llashning huquqiy asosini belgilab beradi [5, 6].

Ikkinchi yo‘nalish videokuzatuv vositalarini olib kirish, ishlab chiqarish, sotish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga oladi. Bu normalar asosan texnik vositalarning qonuniy muomalasi, litsenziyalash, sertifikatlash hamda belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, videokuzatuv vositalaridan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi [7, 8, 9].

Uchinchi yo‘nalish videokuzatuv tizimlari orqali to‘plangan ma’lumotlardan foydalanish, ularni saqlash va qayta ishlash bilan bog‘liq munosabatlar, shuningdek ushbu sohada qonun buzilishi uchun javobgarlikni belgilovchi normalardan iborat. Mazkur normalar shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi, fuqarolarning shaxsiy hayotini himoya qilish hamda videokuzatuv orqali olingan ma’lumotlardan maqsadli va qonuniy foydalanishni ta’minlashga qaratilgan [2, 3, 4].

To‘rtinchi yo‘nalish esa videokuzatuv tizimlari bilan jihozlanishi shart bo‘lgan obyekt va hududlar, shuningdek ularni jihozlashga qo‘yiladigan talablarni tartibga soluvchi normalarni qamrab oladi. Bunda aholi gavjum joylar, transport infratuzilmasi obyektlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari hamda boshqa jamoat ahamiyatiga ega hududlarda videokuzatuv tizimlarini o‘rnatish masalalari nazarda tutiladi [10, 11, 12].

Shu bilan birga, amaldagi normativ-huquqiy bazaning tahlili videokuzatuv tizimlarini qo‘llash masalalari to‘liq va kompleks tarzda tartibga solingan, yaxlit huquqiy mexanizm shakllangan, deb xulosa qilish uchun yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Xususan, videokuzatuv vositalarini o‘rnatish va foydalanish bo‘yicha yagona davlat standartlarining mavjud emasligi, ularni ichki ishlar organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilish tartibining yetarli darajada aniq belgilanmaganligi, shuningdek videokuzatuv orqali to‘plangan ma’lumotlardan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash mexanizmlarining mukammal emasligi mazkur sohadagi asosiy huquqiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur holatlar videokuzatuv tizimlarini jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda samarali qo‘llash uchun amaldagi normativ-huquqiy asoslarni chuqur qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil hamda mantiqiy-huquqiy usullar qo‘llanilib, videokuzatuv tizimining jamoat tartibini saqlashni boshqarishdagi samaradorligi baholandi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar umumlashtirilib, uzluksiz videokuzatuv tizimini jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarishda yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jamoat tartibini saqlash faoliyatini videokuzatuv tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ayrim hududlarda aniq amaliy natijalar bergan. Xususan, Toshkent shahrida “Xavfsiz poytaxt” dasturi doirasida 20 mingdan ortiq zamonaviy videokuzatuv kameralari o‘rnatilib, yagona axborot tizimiga ulangan. Shuningdek, Buxoro viloyatida 2025-yil davomida jami 17 371 ta videokuzatuv kameralari aholi gavjum joylar, ko‘chalar, ko‘p qavatli uylar hovlilari, mahallalarning asosiy kirish-chiqish nuqtalari, savdo obyektlari va ta’lim muassasalari hududlariga o‘rnatilgan.

O‘rganishlar natijasida respublika hududlarida videokuzatuv tizimlari joriy etilgan jamoat joylari va ko‘chalarda ayrim turdagi og‘ir jinoyatlar sonining kamaygani qayd etildi. Jumladan, o‘tgan yilga nisbatan qasddan odam o‘ldirish va unga tajovuz qilish jinoyatlari 43,8 foizga (ko‘chalarda – 25,5 foiz), qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari 7,3 foizga (ko‘chalarda – 7,2 foiz) hamda talonchilik jinoyatlari 15,4 foizga (ko‘chalarda – 15,7 foiz) kamaygan [21].

Shu bilan birga, videokuzatuv tizimlari mavjud hududlarda huquqbuzarliklarni aniqlash va qayd etish tezligi oshgani kuzatildi. Jamoat joylarida sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklarni aniqlash jarayonida videokuzatuv ma’lumotlaridan foydalanish huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyni aniq belgilash imkoniyatini kengaytirgan. Videokuzatuv bilan qamrab olingan hududlarda aniqlangan huquqbuzarliklar ulushi an’anaviy nazorat usullari qo‘llaniladigan hududlarga nisbatan yuqoriroq ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari navbatchilik qismlari hamda patrul-post xizmati faoliyatida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi. Kameralar orqali hodisalar haqida ma’lumotlarning real vaqt rejimida kelib tushishi patrul guruhlarini hodisa joyiga yo‘naltirish jarayonini tezlashtirgan. Videokuzatuv tizimlari integratsiya qilingan navbatchilik qismlarida chaqiruvlarni qabul qilish va qaror qabul qilish vaqti qisqargan.

Shuningdek, videokuzatuv kameralari orqali olingan videoyozuvlar jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda daliliy axborot manbai sifatida foydalanilmoqda. Amaliyotda o‘g‘irlik, bosqinchilik, bezorilik hamda transport vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etishda videoyozuvlardan foydalanilish ulushining ortib borayotgani aniqlandi.

Profilaktika inspektorlari va patrul-post xizmati xodimlari faoliyatida videokuzatuv ma’lumotlaridan foydalanish profilaktik tadbirlarni maqsadli rejalashtirish, xavfli hududlarni aniqlash hamda xizmat marshrutlarini optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari jamoat tartibini saqlash faoliyatida videokuzatuv tizimlaridan foydalanish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda samaradorlikni sezilarli darajada oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, videomonitoring tizimlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda asosiy infratuzilmaviy element sifatida shakllangan. Ayniqsa, “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi doirasida shahar hududlarini yagona videokuzatuv tarmog‘i bilan qamrab olish jinoyatlarning oldini olish, ularni tezkor aniqlash va fosh etish samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, videokuzatuv tizimlari jinoyatchilikka qarshi kurashda ikki tomonlama – profilaktik va fosh etuvchi ta’sirga ega bo‘lgan samarali vosita hisoblanadi. Xususan, Joshua D. Freilich va Graeme R. Newman videokuzatuvni jinoyat sodir etish imkoniyatlarini cheklovchi vaziyatli profilaktika vositasi sifatida tavsiflab, uning mavjudligi shaxslarning og‘ishgan xulq-atvoridan tiyilishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi [13]. Ushbu yondashuv jamoat joylarida uzluksiz videokuzatuv tizimlarini joriy etish jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida videokuzatuv tizimlarining keng joriy etilgani ularning yuqori amaliy samaradorligi bilan izohlanadi. Masalan, London shahrida jamoat joylarida o‘rnatilgan kameralar orqali og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni fosh etish darajasining yuqoriligi qayd etilgan [20]. Britaniya kriminologiya maktabi vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan hududlarda mulkiy jinoyatlar hamda kuch ishlatish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar darajasi sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatadi. Farrington va Welsh tomonidan amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra, bunday hududlarda jinoyatchilik o‘rtacha 16–25 foizga qisqargan [14].

Pekin va Moskva shaharlari misolida esa videokuzatuv tizimlari transport vositalari o‘g‘irlanishi va ko‘cha jinoyatchiligini kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan [20]. Ilg‘or tajribalarni tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt elementlari bilan integratsiya qilingan videokuzatuv tizimlari huquqni muhofaza qiluvchi organlarning munosabat bildirish vaqtini qisqartirishi, shaxslarni identifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishi hamda inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirishi ta’kidlanadi [15]. Bu holat videokuzatuvni faqat vizual qayd etish vositasi emas, balki intellektual tahlilga asoslangan kompleks axborot tizimi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash faoliyatida videokuzatuv tizimlarini joriy etish borasida muayyan ijobiy qadamlar tashlanganiga qaramasdan, yuqorida keltirilganidek, jamoat joylari va ko‘chalarda sodir etilayotgan jinoyatlarning statistik ma’lumotlari ushbu tizimlarning amaldagi samaradorligi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda. Bu holat jamoat joylari va boshqa aholi gavjum bo‘ladigan ko‘chalardagi videokuzatuv tizimlarining texnik holati, joylashtirilishi, boshqaruv mexanizmlari hamda huquqiy tartibga solinishini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tahlillar jamoat joylarida o‘rnatilgan videokuzatuv kameralarining katta qismi texnik va tashkiliy jihatdan zamonaviy talablarga javob bermasligini ko‘rsatmoqda. Eski rusumdagi kameralar yuzni tanib olish, shaxsni identifikatsiya qilish va intellektual tahlil funksiyalarini bajara olmaydi, ayrim qismining ishlamay turishi esa tizim samaradorligini pasaytiradi. Kameralarning tartibsiz o‘rnatilgani, jamoat joylarining to‘liq qamrab olinmagani hamda davlat va xususiy obyektlardagi kameralarning yagona tizimga integratsiya qilinmagani sohadagi tizimli muammolar qatoriga kiradi.

Ayniqsa, ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy obyektlar hududlarida videokuzatuv bilan qamrov yetarli emasligi va jinoyatlar ulushining yuqoriligi ushbu hududlarda ilmiy asoslangan hududiy rejalashtirish va xavf tahlili mexanizmlari yetarli darajada qo‘llanilmayotganini ko‘rsatadi. 2020–2025-yillarda ko‘p qavatli uylar pod’yezdi va atrofida sodir etilgan jinoyatlar jami jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlarning o‘rtacha 7,4 foizidan ko‘prog‘ini tashkil qilgan. Shuningdek, ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy obyektlarning kirish yo‘laklari va atrofida sodir etilgan jinoyatlar jami jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlarning o‘rtacha 32,1 foizini tashkil etadi [21].

Videokuzatuv moslamalarini o‘rnatish va ulardan foydalanish bo‘yicha yagona davlat standartlarining huquqiy jihatdan mustahkamlanmaganligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kameralarning texnik talablari, o‘rnatish joylari, ma’lumotlarni saqlash va himoya qilish tartiblari aniq va majburiy xarakterga ega standartlar darajasida belgilab qo‘yilmaganligi turli xil yondashuvlar va samarasiz yechimlarga hamda fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi bilan bog‘liq xavflarga sabab bo‘lmoqda.

Rossiya va Yevropa davlatlari tajribasi videokuzatuv tizimlarining samaradorligi ko‘p jihatdan huquqiy tartibga solingani va markazlashgan boshqaruv tizimi mavjudligi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [16]. O‘zbekiston huquqshunoslik ilmiy adabiyotlarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ularni qo‘llashning huquqiy mexanizmlari va davlat standartlari bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi [17, 18;264-267-b.].

Yurtimiz olimlari tomonidan O‘zbekistonda videokuzatuv tizimlarini joriy etishning maqsad va vazifalari, obyekt va subyektlari, texnik talablari, nazorat mexanizmi hamda ularning “Xavfsiz shahar” komplekslari bilan integratsiyasi qonunchilikda aniq belgilanishi, videoyozuvlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibi hamda videokuzatuvni amalga oshiruvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari qonuniy asosda tartibga solinishi zarurligi alohida qayd etiladi [19; 249-250-b.].

Xorijiy tajriba va milliy ehtiyojlar uyg‘unligida ilgari surilgan takliflar videokuzatuv tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, videokuzatuv vositalarini o‘rnatish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlat standartlarini qonun darajasida mustahkamlash, “Xavfsiz shahar” konsepsiyasini rivojlantirish va uning doirasida O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi videokuzatuv to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish

hamda jamoat transporti vositalari va tadbirkorlik subyektlariga tegishli kameralarni ichki ishlar organlari tizimiga integratsiya qilish choralari jamoat tartibini samarali boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqot doirasida ilgari surilgan takliflar xorijiy tajriba va milliy ehtiyojlar uyg‘unligida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular videokuzatuv tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, videokuzatuv vositalarini o‘rnatish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlat standartlarini qonun darajasida mustahkamlash, jamoat transporti vositalarini videokuzatuv bilan qamrab olish hamda tadbirkorlik subyektlariga tegishli kameralarni ichki ishlar organlari tizimiga integratsiya qilish choralari jamoat tartibini saqlash faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Prezident tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligi haqida bildirilgan fikrlar mazkur takliflarni amalga oshirish uchun mustahkam siyosiy-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi [1]. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning kompleks ravishda joriy etilishi jinoyatlarni tezkor fosh etish bilan bir qatorda, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning salbiy xulq-atvorini cheklash, profilaktik ta’sirni kuchaytirish hamda aholining xavfsizlikka bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot jamoat tartibini saqlash faoliyatida uzluksiz videokuzatuv tizimlarining muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Videokuzatuv tizimlari jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash va fosh etish, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ilg‘or xorijiy tajriba va milliy ehtiyojlar uyg‘unligida videokuzatuv vositalarini qonun darajasida standartlashtirish, “Xavfsiz shahar” konsepsiyasini rivojlantirish va jamoat transporti hamda tadbirkorlik subyektlariga tegishli kameralarni ichki ishlar organlari tizimiga integratsiya qilish choralari jamoat tartibini samarali boshqarish va aholining xavfsizlikka bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Shuningdek, Prezident va davlat organlari tomonidan hamkorlikni kuchaytirish ushbu takliflarning amalga oshirilishi uchun ustuvor siyosiy-huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident jamoat tartibini saqlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirishni buyurdi // https://kun.uz/kr/23065139.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/111453/.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // https://lex.uz/docs/111460/
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // https://lex.uz/docs/97664.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi (2016-yil 16-sentabr) O‘RQ-407-son Qonuni // https://lex.uz/docs/3027843.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi (2012-yil 25-dekabr) O‘RQ-344-son Qonuni // https://lex.uz/docs/2107763.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida” (2011-yil 29-sentabr) O‘RQ-298-son Qonuni // https://lex.uz/docs/1876877.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi (2017-yil 9-yanvar) O‘RQ-420-son Qonuni // https://lex.uz/docs/3093543.

9. O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi (2022-yil 15-iyun) O‘RQ-778-son Qonuni // https://lex.uz/docs/6066682.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son (2025-yil 3-yanvar) qarori // https://lex.uz/uz/docs/7330260.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi hukumat qarorlarini tizimlashtirish to‘g‘risida” (2025-yil 1-dekabr) 754-son qarori // https://lex.uz/docs/-7872510.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2024-yil 27-noyabr) 791-son qarori // https://lex.uz/docs/7239729.

13. *Freilich J.D., Newman G.R.* Situational Crime Prevention // https://oxfordre.com/criminology/display/10.1093/acrefore/9780190264079.001.0001/acrefore-9780190264079-e-3.

14. *Welsh B.C., Farrington D.P.* Effects of Closed Circuit Television Surveillance on Crime // 02 December 2008. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.4073/csr. 2008.17.

15. *Huan Du, Zheng Xu, Zhiguo Yan, Shuhong Gao.* Intelligent Video Analysis Technology of Public Security Standard Sets of Data and Measurements // https://www.springerprofessional.de/en/intelligent-video-analysis-technology-of-public-security-standar/15704738.

16. *Поликанин А.Н.* Правовые аспекты применения систем видеонаблюдения // https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-aspekty-primeneniya-sistem-videonablyudeniya/ viewer.

17. *Хамидов И., Камалова М.* Законодательные основы видеонаблюдения в Узбекистане // https://anhor. uz/pravovoy-razbor/legislative-framework-video-surveillance-uzbekistan/.

18. *Сергеевич Е.А.* Правовые основы использования системы видеонаблюдения в целях защиты объекта // Молодой ученый. – 2023. – № 9 (456). – С. 264-267.

19. *Xujakulov S.B.* Huquqbuzarliklar profilaktikasi: genezisi, nazariyasi va amaliyoti // O‘Zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. Yur. Fan. Dok (DSc). Disser. Toshkent shahri – 2023. – B 249-250/.

20. https://tass.ru/moskva/1850479.

21. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotnomasi.